



UDK:371.03.

*Javhar TURSUNOVA,*

*A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti tayanch doktoranti*

*E-mail: tursunovajavhar@gmail.com*

*Professor Z.Boltayev taqrizi asosida*

## TA'LIM JARAYONIDA MILLIY-MADANIY MATERIALLARDAN FOYDALANISH FUNKSIYALARI

Annotatsiya

Rus tilida ta'lim oluvchi o'quvchilarning nutqini o'stirishda milliy-madaniy materiallarni dars jarayoniga olib kirish va kiritish nafaqat o'quvchining kommunikativ kompetensiyasini balki, uning umummadaniy bilim darajasini ham oshiradi. Shuning uchun bunday milliy o'ziga xos birliklarning dars jarayonidagi funksiyalari va ularning roli haqida ushbu maqolada ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** Milliy madaniy materiallar, axborot, nutq, muloqot, madaniyat, o'z-o'zini tarbiyalash, til va kontekst, bilish, axborot kommunikatsiya texnologiyalari.

## ФУНКЦИИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫХ МАТЕРИАЛОВ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Аннотация

Включение национально-культурного материала в процесс обучения учащихся, обучающихся на русском языке, способствует не только развитию их коммуникативной компетенции, но и повышению общего уровня культурных знаний. В данной работе рассматриваются функции и роль таких национально-специфических единиц в учебном процессе.

**Ключевые слова:** Национально-культурные материалы, информация, речь, общение, культура, самовоспитание, язык и контекст, познание, информационно-коммуникационные технологии.

## FUNCTIONS OF USING NATIONAL-CULTURAL MATERIALS IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Annotation

Integrating national and cultural materials into the learning process of students studying in Russian not only enhances their communicative competence but also raises their overall cultural awareness. This paper discusses the functions and roles of such culturally specific elements in the educational process.

**Key words:** National and cultural materials, information, speech, communication, culture, self-education, language and context, cognition, information and communication technologies.

**Kirish.** O'zbek xalqining milliy-madaniy o'ziga xos jihatlariga oid bilimlarni kengaytirish o'zbek tilini o'qitishda muhim vazifalardan biridir. Bugungi kunda o'qituvchi mahorati uning eng so'nggi zamonaviy metodlar va texnologiyalar orqali o'quvchini fanga va dars jarayoniga qiziqitira olishda namoyon bo'ladi. O'zbek tili darslarida o'quvchini milliy-madaniy materiallardan foydalanib, uning o'z tili haqida o'ylash va o'rganayotgan ikkinchi tili bilan solishtirish, fikrlash, orqali o'rganish imkonini yaratish mumkin. Bu jarayonda o'qituvchining bilim va mahorati juda ham zarur hisoblanadi.

**Tahlil va natijalar.** Aniqki, o'zbek tilini o'rganishda milliy-madaniy materiallardan foydalanish keng ko'lamli umummadaniy tayyorgarlik sharoitlarni yaratadi va natijada dars jarayonida yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Buning uchun quyidagi beshta funksiyani bajarish lozim deb topildi:

- o'quv,
- kognitiv (bilim berish),
- rivojlantiruvchi,
- tarbiyaviy
- professional.

O'quv funksiyasi. Milliy-madaniy materiallar bilan ishlash orqali o'zbek tilini o'rganish nafaqat nutq funksiyalarini, balki turli muloqot shakllarini egallashni nazarda tutadi, bunda til o'rganish jarayonida o'quvchining ma'naviy dunyosi boyitilishi maqsad qilinadi. Ushbu yo'nalishda gapirish, tinglash, o'zbek tilidan ona tiliga va

aksincha tarjima qilish, o'qish va yozish kabi shakllar muvofiqdir.

Bilim beruvchi funksiya. Har qanday xorijiy tilni o'rganish jarayonidagi muhim vazifalardan biri - xorijiy til madaniyatini, aniqrog'i, ushbu madaniyatni tushunishni egallashdir. Albatta, o'rganilayotgan til mamlakatining butun madaniyatini to'liq o'zlashtirish mumkin emas. Muhimi shuki, har bir xalq o'zining mentalitetiga ega bo'lib, u boshqa xalqlarinkidan ancha farq qiladi.

"Tildagi so'zlarning soni hajmini ifodalaydi, tilning grammatik tuzilishi esa bizga tafakkurning ichki tuzilmasini tushunishga imkon beradi" - shunday ta'rifni mentalitetga V.Gumboldt bergan va u aynan til grammatikasi millat mentalitetining ifodasidir, chunki u xalqga eng yaqindir, deya hisoblagan. Umuman olganda bu vazifani inobatga olishning ahamiyati shundaki, madaniyatni egallash jarayonida xalq qadriyatlarini tizimini tushunish shakllanadi.

Rivojlantiruvchi funksiya. Mazmuni shundaki, o'zbek tili madaniyati o'zga tilli o'quvchining ijtimoiy va professional shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, bu xususiyatlar bilim olish jarayonida eng muhim rol o'ynaydi.

Bunga quyidagilar kiradi:

- til, aqliy va bilish qobiliyatlarini rivojlantirish (qabul qilish, xotira, tafakkur, tasavvur);
- axborotni mustaqil ravishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida topish va talqin qilish ko'nikmalarini rivojlantirish;

- til va kontekst bo'yicha taxmin qilish, bilim va ko'nikmalarni yangi vaziyatlarga qo'llash qobiliyatlarini rivojlantirish;

- qadriyat yo'nalishlari, his-tuyg'u va emotsiyalarni rivojlantirish;

- chet tilini birgalikda o'rganish maqsadida xorijiy til madaniyatlararo muloqotiga kirishish qobiliyati va tayyorgarligini rivojlantirish;

- o'zbek tilini o'rganishda doimiy o'z-o'zini tarbiyalashga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish;

- milliy o'zlikni anglashni rivojlantirish.

Tarbiyaviy funktsiya. O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'rganish o'quvchilarning axloqiy tarbiyasi uchun sharoit yaratadi, bunda asosiy maqsad shaxsni tarbiyalashdir. O'zbek tilini o'qitish jarayonida shaxsning eng muhim axloqiy sifatleri - vatanparvarlik, do'stlik va insonparvarlik shakllantiriladi.

O'quvchilarning o'quv materiali bilan ishlashdagi say-harakatlari va mustaqil ishlashga bo'lgan ijobiy munosabati o'qituvchi tomonidan, uning o'quvchilarni bilishi, professional mahorati va o'zbek tilining o'quv fan sifatida bajarishi mumkin bo'lgan tarbiyaviy funksiyasini tushunishi asosida belgilanadi.

O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish jarayonida tilni madaniyat bilan aloqada o'qitish orqali jamoada ishlash qobiliyati shakllantiriladi, o'quvchilar o'rtasida muloqotda oddiy etik qoidalar o'zlashtiriladi, shuningdek, ularda suhbatdoshni diqqat bilan tinglash, so'rovlar, savollar va mulohazalarga odob bilan javob berish hamda muloqotga kirishish qobiliyati tarbiyalanadi. Ko'rinadiki, o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'rganish o'zga til vakillarining muhim jihati - nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

O'zbek tili ta'limida milliy-madaniy materiallar bilan ishlash orqali intellektual mehnat ko'nikmalari shakllantiriladi (darslik bilan ishlash, tinglab tushunishdagi amaliyot va audiovizual vositalardan foydalanish, lug'atlar va grammatik ma'lumotnomalardan foydalanish, o'zini nazorat qilish va o'z-o'zini tuzatish qobiliyatlari).

Bundan tashqari, bu jarayonda til o'rganish estetik ta'sir ko'rsatadi. O'rta va yuqori bosqichlarda o'quvchilarni o'rganayotgan til xalqlarining zamonaviy qo'shiqlari, raqslari jalb etadi. Estetik tarbiya maktab o'quvchilarini madaniyatning nufuzli vakillari bilan tanishtirish orqali amalga oshirilishi mumkin, buning uchun jurnallardagi tasviriy materiallardan foydalanish tavsiya etiladi. Tarbiyaning asosiy maqsadini yuqoridagi fikrlardan umumlashtirib aytganda, ijtimoiy faollikka ega shaxsni kamol toptirish hisoblanadi.

O'zbek tili ta'limida milliy-madaniy materiallar bilan ishlash orqali intellektual mehnat ko'nikmalari shakllantiriladi (darslik bilan ishlash, tinglab tushunishdagi amaliyot va audiovizual vositalardan foydalanish, lug'atlar va grammatik ma'lumotnomalardan foydalanish, o'zini nazorat qilish va o'z-o'zini tuzatish qobiliyatlari).

Bundan tashqari, bu jarayonda til o'rganish estetik ta'sir ko'rsatadi. O'rta va yuqori bosqichlarda o'quvchilarni o'rganayotgan til xalqlarining zamonaviy qo'shiqlari, raqslari jalb etadi. Estetik tarbiya maktab o'quvchilarini madaniyatning nufuzli vakillari bilan tanishtirish orqali amalga oshirilishi mumkin, buning uchun jurnallardagi tasviriy materiallardan foydalanish tavsiya etiladi. Tarbiyaning asosiy maqsadini yuqoridagi fikrlardan umumlashtirib aytganda, ijtimoiy faollikka ega shaxsni kamol toptirish hisoblanadi.

Professional funktsiya. Asosiy g'oya shundaki, o'zga til madaniyati har bir xalqqa xos bo'lgan professional o'ziga xosliklarni belgilaydi. Boshqa til vakili bo'lgan odam shu til madaniyatining ta'sirini his qila boshlaydi. Bu til madaniyatini yetarli darajada bilmaslik salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin, masalan, shu til madaniyati vakillari bilan aloqalardan

qochish, stress, bezovtalik va boshqalar. Boshqa tilda ishonch bilan muloqot qilish faqat amaliy jarayonda yuzaga keladi.

O'zbek tili madaniyati murakkab va ko'p qirrali tushuncha bo'lib, uni o'quvchilar tomonidan to'liq o'zlashtirish imkoniyati yo'q. Shu sababli o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'rganishda fan mazmunini o'rganilayotgan til mamlakatining madaniyat elementlari bilan boyitishga jiddiy yondashish zarur.

Zamonaviy hayot talablariga ko'ra, tilni o'rganish funksional bo'lishi kerak. Tilni shunchaki bilish yetarli emas; bugungi kunda til bilimlari boshqa madaniyat vakillari bilan muloqot vositasi sifatida qo'llanilishi lozim. Lug'atni to'g'ri ishlatish, uni aniq kontekstda tushunish — ya'ni nimani, qachon, kimga va kim oldida aytishni bilish juda muhimdir.

Misol sifatida "boshi ochiq" - "turmush qurmagan" ifodasini olamiz, u rus tilida gapiruvchi uchun ma'nosi ahamiyatga ega emas. Biroq bu ifoda o'zbeklar uchun turmush qurmagan, yolg'iz ayol yoki qizga nisbatan ishlatiladi. Bunday ayol jamiyatda himoyasiz, "gapga qoluvchi" deb qaralgan.

Til kommunikatsiyasi xalq ijodida yorqin namoyon bo'ladi. O'zbek tilidagi ko'plab frazeologizmlar adabiy kelib chiqishga ega bo'lib, og'zaki nutqda faol ishlatiladi. Masalan, o'zbek dostonlaridagi "Tuyani ko'rib, echkini so'yama" (o'z holingni unutma), el ichida el bo'ldim (hurmat topdim), dunyo ko'ziga tor bo'ldi (hayotdan umid uzdi, siqildi) kabilar.

Madaniy komponent keng madaniy-tarixiy ma'nolar doirasiga kirib, uning o'zlashtirilishi muloqotni amalga oshirish uchun muhimdir. Tilda xalqning ijtimoiy tajribasi aks etadi.

Ba'zi so'zlar o'xshash tarzda tarjima qilinsa-da, leksik ma'nolari farq qiladi. Masalan, "internat" so'zi. Rossiyada internatda o'qiydigan bolalar ota-onalari ijtimoiy xavfli holatda bo'lganlar hisoblanadi va bu yerda ta'lim ikkinchi planda turadi, biroq O'zbekistonda maktab-internat shaklida ishlatilib, doimiy yashash joyi bor maktab, ba'zida maxsus ehtiyojli bolalar uchun yoki iqtidorli bolalar taxsil oladigan joy hisoblanadi.

"Boyo'g'li" so'zi - qush turi. Rus tilida bu so'z donolik, sokinlik, tungi qudrat belgisi sifatida, o'zbeklarda esa yomonlik, baxtsizlik timsoli sifatida namoyon bo'ladi.

O'rganilayotgan til madaniyatiga to'liq sho'ng'ish uchun til birliklarining ortidagi madaniy fon bilan tanishish zarur, bu esa tilning yuzaki tuzilishlarini uning chuqur mohiyati bilan bog'lash imkonini beradi. Shuning uchun frazeologizmlar, maqollar va latifalarni o'rganishga alohida e'tibor qaratish muhim bo'lib, turli ifodalarning ma'nolariga urg'u berish kerak.

O'zbek tilini o'rganishda lingvokulturologik yondashuvni qo'llashda madaniyatga moslik va rivojlantiruvchi ta'lim muhim hisoblanadi. Bunga quyidagi usullar orqali erishiladi:

- o'quvchilarning qiziqishini rag'batlantirish;

- ijodiy yondashuvni oshirish;

- muammoli vaziyatlar yaratish va savollar berish;

- tadqiqot va qisman izlanish usullaridan foydalanish;

- o'zbeklarning so'zlashuvida xarakterli bo'lgan maqollar, xalq iboralari va frazeologizmlarni lingvokulturologik tahlil qilish;

- madaniy xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirishga mo'ljallangan usullarni qo'llash;

- tilning barcha jihatlarini madaniyat nuqtai nazaridan o'zlashtirish usuli.

Ushbu usullar o'quvchilarda hissiy qabul qilishni uyg'otadi. Materialni mustahkamlash uchun kichik teatr sahnalashtirishidan foydalanish mumkin, bunda dialog orqali bir o'quvchi o'zbek obrazini, boshqasi esa rus obrazini ijro etadi. Bunda ijodiy yondashuv qo'llanilib, maqollar, xalq iboralari va frazeologizmlar kiritilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'zbek tili ta'limida quyidagi maxsus jihatlarni inobatga olish va qo'llash o'z samarasani beradi:

- o'rganilayotgan tilning lingvokulturologik aspektlarini o'z ichiga olgan darslar;
- milliy-madaniy materiallar bilan mustaqil ishlash;
- milliy madaniyatni aks ettirgan materiallar.

Ushbu materiallarning samaradorligi ularning autentikligi va o'zbek madaniyatiga yaqinlashish imkoniyatini yaratadi. Eng katta afzalligi shundaki, ular haqiqiy kommunikatsiyani faollashtiradi: o'quvchilar o'yin davomida barcha voqealarni hayotiy tarzda boshdan kechiradilar, muayyan rollarni ijro etadilar, qo'yilgan vazifalarni hal qiladilar va savollariga javob qidiradilar. Shubhasiz, pragmatik materiallarga asoslangan mashqlar majmuasini tizimli qo'llash o'quvchilarda muloqot qilish, jamoada ishlash, mulohaza qilish kabi ko'nikmalarni shakllantirish uchun samarali vosita bo'ladi.

Milliy-madaniy materiallarda autentik xususiyati muhim bo'lib, autentik materiallar tilni o'rganuvchilar uchun madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani va nutqni rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi.[3] Bunday materiallar o'quv jarayoni va real hayot o'rtasidagi tafovutni yo'qotib, sinfga jonli muhitni olib kiradi. Autentik materiallarning eng muhim tomoni shundaki, til o'rgatuvchilar tomonidan qayta sayqallanmaganligi tufayli o'rganuvchilar tabiiy til muhitini va haqiqiy madaniy kontekstini o'zlashtirish imkoniga ega bo'ladi [4]. Bunday materiallar o'quvchiga o'rganayotgan tilidagi urf-odatlar va turmush tarzi bilan bevosita tanishish imkonini beradi. Shuningdek, autentik materiallardan foydalanish o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va shu til egalarining madaniy o'ziga xos jihatlarni anglashga yordam beradi.

Bugungi kunda o'zga tilli maktablarning har bir sinfida boshqa millat va tilga mansub o'quvchilar tahsil olishmoqda. Tabiiyki, bu jarayon o'qituvchilar uchun o'zbek tili darslarida madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya va nutqni rivojlantirishni eng muhim vazifalardan biriga aylantiradi. Kommunikativ kompetensiya nutqni muloqotning maqsadi va holati bilan taqqoslash qobiliyatini, shuningdek, kommunikativ xatti-harakatlarning madaniy va ijtimoiy me'yorlarini hisobga olgan holda muloqotni to'g'ri yo'lga qo'yish qobiliyatini o'z ichiga oladi. M.R.Lvovning ta'kidlashicha, "kommunikativ kompetentlik – bu til va uning fonetik xususiyatlarini, leksik va grammatik birliklarini, stilistikasini, nutq madaniyatini, ushbu

til vositalariga ega bo'lishni va nutq faoliyati turlarini bilishni bildiruvchi tushunchadir [2].

Autentik materiallar tarkibiga kiruvchi audio materiallarga multfilmlar, filmlar, radiodasturlar, ob-havo xabarlari, internet materiallari, temir yo'l va aeroportlardagi e'lonlar, televizion dasturlar, reklama roliklari, yangiliklar, telefon xabarlari, podkastlar, musiqa, audio yozilgan hikoyalar, va hokazo;

vizual materiallarga fotosuratlar, rasmlar, otkritkalar, o'yinchoqlar, chizmalar, matnsiz yo'l belgilar, tasvirlar, jurnallar va gazetadagi suratlar, pochta markalari, tangalar, matnsiz rasmiy kitoblar, oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa har qanday predmetlar;

bosma materiallarga esa kitoblar, internetdagi axborot, ko'chadagi e'lonlar, turli mahsulotlarning qadoqlari, qo'shiq matnlari, gazeta va jurnallar, reklamalar, teleko'rsatuvlar jadvali, kataloglar, restoran menyulari, mahsulot yorliqlari, xaritalar, xatlar, tabriknomalar, maktab e'lonlari, tashqi reklamalar, jamoat transporti jadvali va boshqalar kiradi[1].

O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitishda autentik materiallar juda ko'p bo'lishi mumkin, lekin o'qituvchi har bir sinfga mos keladigan autentik materiallarni tanlashda muhim mezonlarga: o'quv dasturidagi mavzularga, o'quvchilarning qiziqishlariga, foydalilik darajasiga, til bilish darajasiga va yoshiga mos bo'lishiga e'tibor qaratishi kerak.

Autentik materiallarni o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'rganayotgan o'quvchilarning til bilish darajasiga moslab berish juda muhim hisoblanadi, chunki autentik materiallar ona tilida so'zlashuvchilarning madaniyatiga asoslangan bo'lib, u til o'rganuvchilar uchun begona yoki noo'rin tuyulishi mumkin. Bunday holat yuz bermasligi uchun o'qituvchi o'zbek tilini o'qitishda autentik materialdan foydalanishdan oldin o'quvchilarning til va madaniyatni o'rganishdagi maqsadini aniqlab olishi darkor.Undan so'ng o'qituvchi autentik materiallardan foydalanish maqsadi va ularning til o'rganishi bilan bog'liqligi haqida suhbat o'tkazib, o'quvchilar bilan hamkorlikda materiallarni yig'ishi kerak.

**Xulosa.** Har bir funksiya o'zbek tili darslarida milliy-madaniy so'zlarni o'quvchining ongiga singdirish va u orqali nutqiy jarayonlarda kuzatiladigan kamchiliklarni bartaraf etish uchun atroflicha yechim bo'ladi. Agar o'quvchi yuqoridagi funksiyalar doirasida o'qish jarayoinini amalga oshirsa, tilni o'rganish va nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish oson kechadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Asilova G.A. O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda autentik materiallarni tanlash tamoyillari // O'zbekistonda xorijiy tillar. - 2023. - № 6 (53). - B. 172-185.
2. Гильманова С.А. Педагогические условия развития иноязычной коммуникативной компетенции студентов неязыковых факультетов. Диссертация на соискание академической степени магистра. – Челябинск, 2019. 147 с. <https://www.researchgate.net/publication/>
3. Martinez A.G. Authentic Materials: An Overview. Free Resources for Teachers and Students of English. Karen's Linguistics Issues, 2002. — Pp. 1–7. — URL-1: <https://www.scirp.org/%28S%28lz5mqp453edsnp55rrgjt55%29%29/reference/referencespapers.aspx?referenceid=2501731>
4. Little D., Devitt S., Singleton D. Authentic Texts in Foreign Language Teaching: Theory and Practice. - Dublin: Authentik, 1999.